



**SALIB YURISHLARI : XRISTIAN G'ARB VA ISLOM SHARQINING  
TO'QNASHUVI**

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

**dotsenti Xayitova Feruza Buxarovna**

**Yovmudboyeva Mohira Azimjon qizi**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti Tarix fakulteti, Tarix  
yo'nalishi 102-guruh talabasi**

**ANNOTATSIYA:** Salib yurishlari -G'arbiy Yevropa feodallarining kolonizatsiya (qo'shib olish) harakati bo'lib, unda qisman shaharliklar va dehqonlar ham ishtirok etganlar. Katolik cherkovi yurishlarga diniy tus berib, Falastindagi muqaddas qadamjolarini musulmonlardan ozod etish, majusiy va daxriylarni xristian diniga kiritishni shior qilib ko'tardilar. Yurishlarning klassik davri 1096-1270-yillarda bo'lib, ularni qayta tashkil qilishga urinishlar o'rta asrning oxiriga qadar, ramzlaridan foydalanish esa yangi davrga qadar, hatto hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Salib yurishlari boshlanishiga asosiy sabablar ikki toifaga, ya'ni bir tamondan boylik orttirish bo'lsa, ikkinchi tamondan Quddusdagi <<Iso payg'ambar qabri>> ni qaytarib olish bo'lgan. Shuningdek maqolada Salib yurishlari o'zi diniy kurashmi yoki bosqinchilik degan savolga ham javob topishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Falastin, Suriya, Kichik Osiyo, Sitsiliya, Fridrix, Richard I Sheryurak, Misr, Salohiddin Ayubiy.

Yevropada XI asrdan shaharlarning yuklasi borishi davomida ichki va tashqi savdo ortiqcha dehqonchilik mahsulotlari, qimmatbaho buyumlar, gazlamalar, qurol-yarog, ziravorlarga yoki almashinuvlarga asosiy vositasi – pulga aylantirishi mumkin edi. Senyorlarda boylikka, hashamga talab kuchayib, uni qondirishning yagona usuli dehqonlarga taziqni kuchaytirish bo'lib qoladi. Yevropadagi Mayorat tizimi, yer-mulkning maydalashmasligi uchun merosning katta o'g'ilga qoldirish udumining mavjudligi, ko'plab ritsarlarni xoxish-istagiga qarshi oddiy hayot kechirishga majbur etardi. Vujudga kelgan vaziyatda ritsarlar o'z toifalariga loyiq to'kis hayot kechirish uchun har qanday vositadan ham qaytmasligi ma'lum bo'ldi. Ritsarlar harbiy bo'linmalari xizmat izlab, senyordan senyorga o'tar, majarolarga aralashar, bazida ochiqchasiga yo'lto'sarlik va xatto manastirlarga ham hujum qilar, savdogarlarni



talashdan ham qaytishmagan. Yevropadagi bunday siyosiy va ijtimoiy vaziyatda yagona mustahkam tashkilot katolik cherkovi bo`lib qolgan edi. Bu davrda Klyuni manastiri abbatlari say-harakatlari nafaqat cherkovning iqtisodiy qudratini, balki siyosiy mavqeyini ham oshiradi. Ushbu vaziyatda Rim papalari Yevropa hukmdorlari orasida bosh bo`lishga davo qila boshlashadi. Vizantiyaning zaiflasha boshlashi XI asrlarining o`rtalaridan, papalarning sharqiy xristian cherkovi ustidan hukmronligini tiklashga intilishini kuchaytirdi. Yevropa shaharlarida taraqqiyoti turlicha bo`lsada, bularning barchasi Vizantiya va SHarq mamlakatlari bilan savdodan manfaatdor bo`lishgan. Qit`ada esa, uzoq mamlakatlardan keltiriladigan ipak va parcha, qimmatbaxo qurol-aslahalar, shishadan tayyorlangan badiiy buyumlar ga talab ortib borayotgan edi. Savdoning SHarqdan kelgan birgina karvoni ba`zida butun bir mulkka erishishga imkon berardi. Eng nafis va qimmatbaho buyumlar qit`aga Vizantiya va SHarq davlatlari orqali kelardi, Yevropada dengiz ortidagi mo`jizakor boy mamlakatlar haqida turli xil afsonalar keng tarqalgan edi. Sharq -Yerdagi Jannat, << Muqaddas Yer>> ( Falastin, Quddus ) – Iso payg`ambar vatani haqidagi riviyatlar o`rta asr kishilarida katta qiziqish va havas uyg`otdi.

Xalifalik istilo qilgan Falastin, Suriya, Kichik Osiyo, Sitsiliya, Ispaniyada arablar musulmon bo`lmaganlarga yaxshi munosabatda bo`lgan. Jumladan, yevropalik xristian ziyoratchilar VIII asrdayoq << Muqaddas yer>> - Falastin ga erkin borib kelishgan. XI asrdan ziyoratchilar soni tobora ko`payib, ularning bir qismi Reyn va Dunay daryolari orqali Vengiriyadan Bolqonga, undan Kichik Osiyo va Suriya ga o`tsa, boshqalari Italiya va Vizantiya dan dengiz orqali kemalarda ziyoratga borishgan. Yo`l uzoq, mashaqatli bo`lganidan ziyoratchi sayyohlar katta guruhlarga birlashib harakat qilishgan. XI asrning ikkinchi yarmidan Saljuqiy turklarning Yaqin SHarqni istilo qilishi, ularning turli beyliklar orasidagi nizolar vaziyatni salbiy tamonga o`zgarishiga olib keladi. Ziyoratchilar uchun Quddusga yo`llar deyarli yopiladi. Urushlar davomida ko`plar ibodatxona va manastirlar vayron qilinadi. Ammo dengiz orqali borgan ziyoratchilar unchalik katta bo`lmagan bojni to`lab, Quddusga ziyorat uchun kelishni davom ettirishdi. Katolik cherkovi esa, papalik ko`magida musulmonlarning <<yovuzliklari>> muqqadas joylarni <<taxqirlashyotganligi>> haqida turli mish-mishlarni tarqatishardi.

Dastlabki salib yurishlari xususiyatlaridan biri ommaviylik bo`lib, ular dastlab shoshilinch ravishda tashkil qilingan. Bu yurishlarda yuqori tabaqadagi ritsar, graf va gersoglardan tashqari dehqonlar Fransiya va Italiyaning janubidagi kichik shaharlardagi savdogarlar ham qatnashdi. Yillar o`tib, bora-bora bu harakatlar ritsarlarning harbiy



ekspeditsiyalariga aylana bordi. Keyingi XIII asr oxir- XV asrlardagi salib yurishlarining aksari Yevropa manarxlarining, Italiya dengiz respublikalari va eng avvalo Venetsiya qo`llashi orqali tashkil qilingan.” Salib yurishlari tushunchasi 1250-yilda paydo bo`lib, XVII-XVIII asrlarda tarixiy asarlarda keng qo`llana boshladi<sup>1</sup>”. Birinchi salib yurishlari qatnashchilari kiyimlariga butning tasvirini tushurib, o`zlarini pilgrimlar (ziyorchilari sayyohlar) deb atab, yurishlar-ziyosat, muqaddas yo`l nomini olgan. O`rta asr jamiyatida odamlar ongida haqiqiy boyliklar Sharq mamlakatlarida ekanligi haqida tassavurlar kuchaya bordi. Sharqdan kelgan kamyob molar, ziravorlar bu fikrni asoslagandek edi go`yo. Natijada, Yevropada Sharqdagi boyliklarni egallash nafaqat mumkin, balki cherkov tomonidan yoqlangan, Xudoga xush keladigan tadbir ekanligiga ishonch tobora kuchayib boradi. Bazilar takidladandek, Yevropa boshidan kechirayotgan demografik yuksalish hal qiluvchi omil bo`lmasada, uzoq davom etgan yurishlar bularda ko`plab axolining qatnashishi imkonini berdi. Diniy mutasablik kuchayib, tarkidunyochilikning eng keskin ko`rinishlari ko`payib boradi. Yevropaning barcha hududlarida axoli orasida oxirzamon yaqinlashgani haqida hukmron edi. Gunohlari uchun Xudoning qahrini kutish, <<Muqaddas yer>> ni ziyorat qilib, diniy jasaratlar ko`rsatib insoniyatni oxirat azobidan qutqarishga davatlar kuchayib brogan edi. Quddusga ziyoratga boruvchilar ham ko`payib, undan qaytayotgan ziyoratchilar ham xristianlarni musulmonlar taqib qilganligi haqidagi noo`rin gaplar ham axoli ongidagi jazavalarni kuchaytirdi. Dastlabki salib yurishlari yani 1-salib yurishi uchun o`sha davrda sabablar yetarlicha edi. XI asrda oxirida Yevropada diniy ishtiyoq va harbiy yurishlarga bo`lgan qiziqish tobora kuchayib borayotgan edi. Bu davrda Usmonli Turklar va Vizantiya imperiyasining hududlariga taxdid solib, Sharqiy Xristianlar markazi hisoblangan Kastantinopolga yaqinlashayotgan edi. Vizantiya imperatori Aleksey I bu xavfga qarshi kurashish uchun Rim papasidan yordam so`radi. Bu so`rov ayni damda butun Yevropada ulkan harbiy harakatlar boshlanishiga turtki bo`ldi. “1095-yil Rim papasi Urban II Fransiyaning Klermon shahrida yig`ilgan olomon oldida tarixiy nutq so`zladi. U xristianlarni Muqaddas yer musulmonlarning asirligidan ozod etish uchun kurashga chaqirdi<sup>2</sup>”. Urban II nutqida musulmonlarning xristianlarga nisbatan bo`lgan zulmi haqida gapiradiva bu yurishlarda qatnashadiganlarning gunohlari kevhirilishini e`lon qiladi. Bu chaqiriq Yevropada tez tarqaldi va yuz minglab ritsarlar, dehqonlar hamda sarguzasht izlovchilar salib

<sup>1</sup> Salimov T.O` “Jahon tarixi “Yevropa mamlakatlari V – XV asrlarda, Toshkent – “Universitet” – 2014.

<sup>2</sup> Madaminov.T “O`rta asrlar tarixi”, Qo`qon – 2010.



yurishiga qo'shildi. Urban II ning nutqidan so'ng, birinchi bo'lib oddiy xalq yurishga o'tlandi. Nemis ruhoniysi Pyer lermite boshchiligidagi bu <<xalq salib yurishi >> asosan dehqonlar va kambag'allar tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ular jangovar tajribaga ega emas edilar. Bu guruh Usmonli turklar tomonidan osonlikcha tor-mor etildiva omaviy qirg'inga uchradi. Faqatgina ozgina kishi Konstantinopolga yetib borishga muvaffaq bo'ldi. 1096-yilda haqiqiy harbiy yurish boshlandi.

Yevropaning turli hududlaridan, jumladan, Fransiya, Germaniya va Italiyadan minglab tajribali ritsarlar to'plandi. Ularning orasida eng mashhurlari Godefroy de Buyon, Boemund Tarantolik, Raymond Tuluza va boshqa nufuzli qo'mondonlar bor edi. Bu qo'shin Vizantiya imperiyasining poytaxti Konstantinopolga yetib kelganida, imperator Aleksiy I ulardan fath etilgan hududlarni Vizantiya nazorati ostiga qaytarishni talab qildi. Salibchilar esa bu shartga ko'nishga majbur bo'lishdi, ammo keyinchalik o'zlari hududlarni egallash harakatini boshladilar. Birinchi Salib Yurishi davomida salibchilar musulmon kuchlariga qarshi bir nechta muhim janglarda g'alaba qozonishdi. Bu g'alabalar salibchilarning Yaqin Sharqga kirib borishini osonlashtirdi va ularning Quddus sari yurishini davom ettirishiga imkon yaratdi. "Eng asosiy janglar Nisriya qamali (1097), Dorylayon jangi (1097) va Antioxiya qamali (1098) bo'ldi. Nisriya qal'asining zabt etilishi 1097-yil, 14-may – 19-iyun kunlarida sodir bo'lgan hisoblanadi<sup>3</sup>". Salibchilar 1097-yil bahorida Vizantiya imperatori Aleksiy I bilan kelishuvga erishib, Konstantinopoldan chiqib, Usmonli turklar boshqaruvidagi Nisriya (Nikaea) qal'asi sari yo'l oldilar. Bu shahar Kichik Osiyodagi muhim strategik nuqta bo'lib, sulton Kilij Arslon I tomonidan himoya qilinardi Salibchilar qal'ani qamal qilishdi, lekin shahar mustahkam devorlarga ega bo'lgani sababli hujumlar muvaffaqiyatsiz kechdi. Kilij Arslon I shaharni himoya qilish uchun katta qo'shin to'plab, salibchilarga qarshi hujum uyushtirdi. Biroq, salibchilarning og'ir zirhli ritsarlari turk yengil otliq qo'shinlariga qarshi kuchli ustunlikka ega edi. Jang davomida salibchilar Kilij Arslon qo'shinlarini yanchib, uni chekinishga majbur qilishdi. Nihoyat, Vizantiya imperatori Aleksiy I Konstantinopoldan o'z kemalarini jo'natib, shaharni ko'l tomonidan qamal qildi. Turklarga yordam kelishi imkonsiz bo'lib qolgach, 1097-yil 19-iyun kuni shahar taslim bo'ldi. Bu Birinchi Salib Yurishining dastlabki yirik g'alabasi edi. Keyingi yurish Dorylayon jangi hisoblanadi. Bu jang 1097-yil 1-iyul sanasida ro'y berdi. Nisriyaning qulashi Kilij Arslon I uchun katta yo'qotish bo'ldi. Lekin u salibchilarga qarshi yangi reja tuzdi. Salibchilar Kichik Osiyo bo'yab janubga

<sup>3</sup> Madaminov.T "O'rta asrlar tarixi", Qo'qon – 2010.



qarab yurib borayotgan paytda, Kilij Arslon ularni Dorylayon tekisligida pistirmaga tushirishni rejalashtirdi. Salibchilarning oldingi guruhi Buyuk Godefroy va Boemund Tarantolik boshchiligida Dorylayonga yetib kelganida, Kilij Arslon ularga hujum boshladi. Turk qo'shini son jihatdan ustun edi va tezkor otliq askarlari yordamida salibchilarni qurshab olishga harakat qildi. Salibchilar dastlab og'ir ahvolga tushib qoldi va orqaga chekindi, ammo ularning ikkinchi guruhi, Raymond Tuluza boshchiligida yetib kelib, jang natijasini o'zgartirdi.

Ikki tomondan siqib qo'yilgan turk qo'shini tartibsiz ravishda chekinishga majbur bo'ldi. Bu g'alaba salibchilarga Kichik Osiyo hududlarini to'liq egallash va Yaqin Sharq sari yo'l ochish imkonini berdi. Undan keyingi jang Antioxiya qamali edi. Bu yurish 1097-yil oktabr – 1098-yil 3-iyun sanalarida ro'y bergan. Salibchilar uchun eng muhim janglardan biri Antioxiya qamali bo'ldi. Antioxiya hozirgi Turkiyaning janubida joylashgan bo'lib, u musulmonlar uchun muhim harbiy va diniy markaz edi. Salibchilar bu shaharni egallash uchun 1097-yil oktyabrda qamal boshlashdi. Antioxiyaning devorlari mustahkam edi va musulmonlar uzoq vaqt shaharni himoya qilishdi. Salibchilar ocharchilik va kasallikdan aziyat chekishdi, ammo taslim bo'lishmadi. Nihoyat, 1098-yil 3-iyun kuni salibchilar shahar ichkarisidagi bir musulmon generali bilan yashirin kelishuvga erishib, uni sotib olishdi. O'sha tunda qal'a darvozalari ochildi va salibchilar shahar ichiga bostirib kirdi. Shaharga kirgan salibchilar musulmon aholining katta qismini qirib tashlashdi. Antioxiyaning zabt etilishi salibchilarga Suriyaga yo'l ochdi va ularning Quddus sari yurishini davom ettirishiga imkon berdi. Bu dastlabki g'alabalar salibchilar uchun juda muhim bo'lib, ularga musulmon hududlarida harakat qilish va Muqaddas Yer sari yurishlarini davom ettirishga yo'l ochib berdi.

Ikkinchi Salib Yurishi (1147–1149) Yevropadan boshlangan ikkinchi yirik salib yurishi bo'lib, 1144-yilda Edessa grafligining Imodaddin Zangi qo'shinlari tomonidan zabt etilishiga javoban uyushtirilgan. Edessa grafligi Birinchi Salib Yurishi paytida, 1098-yilda, Quddus qiroli Boldvin I tomonidan tashkil etilgan bo'lib, salibchilar tomonidan o'rnatilgan birinchi davlat edi. Shu bilan birga, u birinchi bo'lib mag'lubiyatga uchragan davlat ham edi. Ushbu yurish Rim papasi Yevgeniy III tomonidan e'lon qilingan va Yevropa qirollari, jumladan, Fransiya qiroli Lyudovik VII va Germaniya qiroli Konrad III tomonidan boshqarilgan. Har ikki qirol o'z qo'shinlari bilan alohida-alohida harakat qilib, Vizantiya hududidan o'tib, Kichik Osiyoga yetib kelishdi. Biroq, saljuqiy turklar tomonidan ikkala qo'shin ham alohida-alohida mag'lubiyatga uchradi. Ikkinchi Salib Yurishi davomida salibchilar Damashq shahrini



egallashga urinishdi. Ammo bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi va salibchilar ortga qaytishga majbur bo'lishdi. Ushbu yurishning muvaffaqiyatsizligi Yevropada salibchilar harakatining zaiflashishiga olib keldi va musulmonlar uchun ruhiy ko'tarinkilik yaratdi. Bu holat keyingi yillarda musulmonlarning Yaqin Sharqda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashiga yordam berdi. Bu urushning o'ziga xos jihati bu ayollar ham bu yurishda ishtirok etishi edi. Bu yurishda ba'zi Yevropa zodagon ayollari, jumladan, Akvitaniya gersoginyasi Eleonora ham ishtirok etgan. U Fransiya qiroli Lui VII ning rafiqasi bo'lib, yurishda faol qatnashgan.

Uchinchi Salib Yurishi (1189–1192) Yevropa xristian davlatlari tomonidan Muqaddas Yer, ayniqsa, Quddus shahrini musulmon hukmronligidan ozod qilish uchun uyushtirilgan yirik harbiy yurish edi. Bu yurishga asosiy sabab 1187-yilda Misr va Suriya sultoni Salohiddin Ayyubiy tomonidan Quddusning egallanishi bo'ldi. Salohiddin Ayyubiy Hattinga jangida salibchilarni yengib, ularning asosiy markazi bo'lgan Quddusni zabt etdi. Bu xabar Yevropada katta shov-shuvga sabab bo'lib, Rim papasi yangi salib yurishini e'lon qildi. Bu yurishda uchta yirik hukmdor ishtirok etdi: Angliya qiroli Richard I (Sher Yurak), Fransiya qiroli Filipp II Avgust va Muqaddas Rim imperatori Fridrix I Barbarossa. Fridrix katta qo'shin bilan yurishga chiqqan, ammo yo'lda Kichik Osiyoning Salef daryosida cho'kib ketib vafot etgan. Uning vafoti natijasida nemis qo'shini parokanda bo'lib, yurishni davom ettira olmadi. Filipp II Avgust va Richard I dengiz orqali Muqaddas Yerga yetib kelishdi va 1189-yilda Akra shahrini qamal qilishdi. Bu qamal qariyb ikki yil davom etdi va nihoyat 1191-yilda Rikard boshchiligidagi salibchilar g'alaba qozondi. Shundan so'ng, salibchilar va musulmonlar o'rtasida eng yirik janglardan biri – Arsuf jangi yuz berdi. Bu jangda Richard qo'shini Salohiddinning kuchlarini mag'lub etdi va salibchilarning qirg'oq bo'ylab harakatlanishiga yo'l ochildi. Richard va Salohiddin o'rtasidagi raqobat qanchalik keskin bo'lmasin, ular bir-biriga nisbatan katta hurmat bilan munosabatda bo'lishgan. Masalan, Richard kasal bo'lib qolganda, Salohiddin unga o'zining shaxsiy shifokorini yuborgan. Richard esa o'z navbatida musulmonlarning diniy obidalarini va urf-odatlariga hurmat bilan qaragan. Janglar davom etsa ham, Quddusni qaytarib olish salibchilar uchun mushkul vazifa edi. Nihoyat, 1192-yilda Rikard va Salohiddin o'rtasida tinchlik sulhi imzolandi. Bu kelishuvga ko'ra, Quddus musulmonlar tasarrufida qoladigan bo'ldi, biroq xristian ziyoratchilariga shaharni erkin ziyorat qilishga ruxsat berildi.

To'rtinchi Salib yurishi 1202–1204 yillar oralig'ida Xristianlarning o'z birodarlariga qarshi yurishi sifatida tarixga kirgan. To'rtinchi Salib Yurishi avvaliga



Misr orqali yurib, Quddusni qaytarib olish maqsadida uyushtirilgan edi. Biroq, moliyaviy qiyinchiliklar va siyosiy manfaatlar tufayli bu yurish yoʻnalishi oʻzgarib, salibchilar musulmonlarga emas, balki nasroniy Vizantiya imperiyasiga qarshi yurish qilishdi. Natijada, ular 1204-yilda Konstantinopolni egallab, shaharni talon-taroj qilishdi. Bu voqea Sharq va Gʻarb cherkovlari oʻrtasidagi aloqalarni yanada keskinlashtirdi. Salibchilar yurishni Venetsiyadan boshlashdi, ammo kemalar va jihozlar uchun toʻlovni amalga oshira olmadilar. Venetsiya doji Enriko Dandolo bu vaziyatdan foydalangan holda, ularga qarz evaziga Zadar shahrini bosib olishni taklif qildi. Zadar xristian shahar edi, lekin salibchilar baribir uni egallab, talon-taroj qilishdi. Bu voqea salibchilarning asosiy maqsaddan chetga chiqayotganini koʻrsatdi va Rim papasi ularni laʼnatladi. Bu orada Vizantiyaning taxtdan agʻdarilgan vorisi Aleksios IV salibchilardan yordam soʻrab, taxtga qaytishi evaziga katta mukofot vaʼda qildi. Salibchilar bu taklifni qabul qilishdi va 1203-yilda Konstantinopolga yetib kelib, imperator Aleksios III ni agʻdarib, Aleksios IV ni taxtga oʻtqazishdi. Ammo u vaʼda qilingan mablagʻni toʻlay olmadi va natijada shahar aholisi unga qarshi isyon koʻtardi. Aleksios IV oʻldirildi, uning oʻrniga esa Aleksios V taxtga chiqdi. Bu voqealardan gʻazablangan salibchilar 1204-yil 12-aprelda Konstantinopolga hujum boshlashdi va shaharni butunlay egallashdi. Ular shaharni uch kun davomida talon-taroj qilishdi. Ming yillik Vizantiya madaniyati durdonalari, nodir qoʻlyozmalar va sanʼat asarlari yoʻq qilindi yoki Gʻarbgʻa olib ketildi. Hatto shahar cherkovlari ham talandi, Aya Sofiya ibodatxonasi ichida ot boqildi va muqaddas buyumlar buzib tashlandi. Toʻrtinchi Salib Yurishi natijasida Vizantiya imperiyasi parchalanib, uning oʻrnida Lotin imperiyasi tuzildi. Biroq, salibchilar bu davlatni uzoq saqlay olmadilar – 1261-yilda Vizantiya yana oʻz poytaxtini qaytarib oldi. Bu yurish xristian dunyosining boʻlinishiga olib kelgan eng katta fojialardan biri boʻldi. Sharq va Gʻarb cherkovlari oʻrtasidagi munosabatlar keskin yomonlashdi, bu esa Vizantiya va Gʻarb oʻrtasidagi ishonchsizlikni yanada chuqurlashtirdi. Toʻrtinchi Salib Yurishi tarixdagi eng gʻalati va fojiali harbiy yurishlardan biri boʻlib, uning natijalari Yevropa va Sharq dunyosiga uzoq muddatli taʼsir koʻrsatdi. Uchinchi Salib Yurishi natijasida salibchilar Quddusni qoʻlga kiritishda boʻlsalar-da, ular Akra, Yaffa va qirgʻoqdagi boshqa shaharlarga nazorat oʻrnatishdi. Shuningdek, Salohiddin va Rikard oʻrtasidagi kelishuv uzoq muddatli tinchlikni taʼminladi. Ushbu yurish Yevropa va Yaqin Sharq tarixida muhim iz qoldirib, musulmonlar va xristianlar oʻrtasidagi munosabatlarga katta taʼsir koʻrsatdi.

Sakkizinchi Salib Yurishi Yevropaning musulmonlarga qarshi qilgan soʻnggi yirik harbiy harakatlaridan biri boʻldi. Bu yurish 1270-yilda Fransiya qiroli Lui IX (Lui



Muqaddas) tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, dastlab Misr yoki Quddusga emas, balki Tunisga yo‘naltirilgan edi. Lui IX Tunisni egallash orqali Shimoliy Afrikada xristian davlatini barpo etishni va Misrga hujum qilish uchun qulay tayanch nuqtasiga ega bo‘lishni rejalashtirgan edi. Ammo bu yurish umidsizlik va fojia bilan yakunlandi. Lui IX bir necha yil avval Quddusni qaytarish uchun Yettinchi Salib Yurishini (1248–1254) amalga oshirgan, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi. Oradan 20 yil o‘tib, u yana urinishga qaror qildi. Biroq, bu safar uning asosiy maqsadi Tunis sultoni Muhammad I al-Mustansir edi. Tunis strategik jihatdan muhim hudud bo‘lib, u orqali Yevropaning musulmonlarga qarshi harakatlarini osonlashtirish mumkin edi. Bundan tashqari, Lui IX Tunis hukmdorini majburan xristian dinini qabul qilishga undamoqchi edi. 1270-yil yozida Lui IX va uning armiyasi dengiz orqali Tunisga yetib keldi. Salibchilar shaharni qamal qilishdi, ammo yozning jazirama issig‘i va sanitariya sharoitlarining yomonligi ularga qimmatga tushdi. O‘lat kasalligi qo‘shin ichida tez tarqaldi va minglab askarlar vafot etdi. 1270-yil 25-avgustda kasallik qiroidan ham chetlab o‘tmadi – Lui IX o‘z lagerida vabo tufayli vafot etdi. Uning o‘limi yurishning yakunini belgilab berdi. Lui IX ning vafotidan keyin fransuz qo‘shini Tunisni egallay olmadi va Tunis sultoni bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Sulhga ko‘ra, Tunis xristian savdogarlari uchun ochiq bo‘lishi kerak edi, ammo sulton nasroniy dinini qabul qilish shartini rad etdi. Ushbu yurish salibchilar uchun katta muvaffaqiyatsizlik bo‘ldi va Yevropada salib yurishlariga bo‘lgan qiziqish keskin kamaydi. Bu yurishning bir nechta qiziqarli jihatlar bor. Kasallik jangdan kuchliroq edi, Salibchilar Tunis devorlari oldida jangga kirishga ulgurmay, o‘lat va issiqdan qirilib ketishdi. Lui IX ning muqaddas maqom beriladi. Garchi u bu yurishda halok bo‘lgan bo‘lsa ham, Rim papasi keyinchalik uni avliyo deb e‘lon qildi, va u tarixda “Lui Muqaddas” nomi bilan qoldi. Sakkizinchi Salib Yurishi Yevropaning musulmon dunyosiga qarshi qilgan so‘nggi jiddiy harbiy harakatlaridan biri bo‘lib, bu urinish salibchilar uchun umidsizlik va yo‘qotishlar bilan yakunlandi. Bu yurishdan so‘ng Yevropada salib yurishlari davri amalda tugadi.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Salib yurishlari o‘rta asrlarning eng muhim voqealaridan biri bo‘lib, Yevropa va Yaqin Sharq tarixiga katta ta‘sir ko‘rsatgan harbiy, diniy va iqtisodiy harakatlar edi. Bu yurishlar dastlab xristianlarning Muqaddas Yer – Quddusni musulmonlardan qaytarib olish maqsadida boshlangan bo‘lsa-da, oxir-oqibat siyosiy manfaatlar, savdo yo‘llarini nazorat qilish va hokimiyat uchun kurashga aylanib ketdi. Salib yurishlari Yevropada Rim papasi va qirollarning hokimiyatini kuchaytirdi, lekin shu bilan birga, xristian dunyosidagi ichki bo‘linishlarni ham



chuqurlashtirdi. Musulmon dunyosida esa bu yurishlar Salohiddin Ayyubiy kabi buyuk sarkardalarning paydo bo'lishiga va islom olamining birlashishiga turtki bo'ldi.

Bu harbiy harakatlar Yevropa iqtisodiyotini rivojlantirdi, savdo va madaniy almashinuvni kuchaytirdi, fan va texnologiyalarning taraqqiyotiga hissa qo'shdi. Yangi harbiy usullar, qal'a qurish texnikalari va dengiz flotining rivojlanishi salib yurishlarining muhim natijalaridan bo'ldi.

Biroq, salib yurishlari faqat taraqqiyot olib kelmadi. Minglab begunoh odamlarning o'limiga, Yevropa va musulmon dunyosi o'rtasidagi keskin ziddiyatlarga, hatto xristianlar o'zaro urush olib borgan holatlarga ham sabab bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, salib yurishlari tarixda faqat diniy urushlar emas, balki Yevropa va Sharq dunyosi o'rtasidagi aloqalarni shakllantirgan muhim jarayon sifatida qoldi. Ularning ta'siri asrlar davomida sezilib, Yevropaning keyingi rivojlanishiga yo'l ochdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimov M. "Salib yurishlari tarixi". Toshkent. 2019.
2. Berdimuradov M. "O'rta asr jahon tarixi". Toshkent 2019.
3. Abduvaxobov A. "O'rta asrlar tarixi". Toshkent.
4. Salimov.T.O' "Jahon tarixi" yevropa mamlakatlari V-XV asrlar, Toshkent "Universiteti" – 2014.
5. Madaminov. T "O'rta asrlar tarixi", Qo`qon – 2010.